

NAVBATDAGI SAYYOR QABUL BO'LIB O'TDI

Toshloq tumani hokimining birinchi o'rribosari Kamolitdin Umarov ishtirokida fuqarolar uchun navbatdagi sayyor qabuli o'tkazildi. Sayyor qabulda fuqarolar tomonidan bandlik, uy-joy, kadastr xizmati, kredit, sog'liqni tiklash, subsidiya va boshqa masalalar bo'yicha tuman hokimining birinchi o'rribosariga murojaatlar qilinib, ularning har biri alohida nazoratga olindi.

Tegishli mutasaddilar ishtirok etgan sayyor qabulda fuqarolar tomonidan qilingan 40 dan ortiq murojaatlar tegishli mutasaddilar tomonidan nazoratga olinib, ularni qanoatlantirish choralari ko'rildi. Sayyor qabulda murojaatlarning aksariyati joyida hal etildi, ayrimlariga qonuniy tushuntirish berilib, muddat talab qiladiganlari esa tegishli mas'ullar tomonidan o'rganib chiqilmoqda. Ta'kidlash joizki, har haftaning seshanba kuni Toshloq tumani hokimining fuqarolar bilan sayyor qabullari bo'lib o'tmoqda. Zero, har bir murojaat tuman hokimining nazoratida.

2025-01-08 15:44:00